



# KONCHILAR HAYOTI

Gazeta 1991-yildan chiqa boshlagan

№10 (772), 2024-yil 30-may

facebook.com/nkmkofficial

t.me/ngmkofficial

instagram.com/nkmk.official

www.ngmk.uz



## Markaziy kon boshqarmasining 60 yilligiga

# MASHAQQATLI MEHNAT VA ZAFARLAR DAVRI

Quvondiq SANAQULOV,  
"Navoiy kon-metallurgiya  
kombinati" AJ  
Boshqaruv raisi – Bosh direktori

Barchangizni Markaziy kon boshqarmasining 60 yilligi, 2-gidrometallurgiya zavodi va Tashqi suv ta'minoti birlashgan energoxizmatining 55 yilligi bilan chin qalbidan samimiy tabriklayman. Zero, bu yubileylar ulkan jamoamiz uchun ham, yurtimiz kon-metallurgiya sanoati uchun ham keng nishonlashga arzigulik, e'tirofga loyiq quvonchli sanalardir.

Yigirma bir ming nafardan ortiq ishchi-xodimlar ishlayotgan Markaziy kon boshqarmasi kombinatning eng yirik bo'linmasi hisoblanadi. Kombinatta va qayta ishlanayotgan mahsulotning katta qismi shu boshqarma hissasiga to'g'ri keladi va dunyo tan olgan "999.9" tamg'ali oltin quymlar ham shu yerda tayyorlanadi.

Shu o'rinda, e'tiboringizni bir tahlilga qaratmoqchiman! 2017-yilda kon boshqarmasi jamoasi tomonidan 75 million kubometr dan ortiq tog' jinsi qazib olingan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 166 million kubometrni tashkil etib, o'sish darajasi ikki baravargacha oshdi. Yoki 2017-yilda 62 million tonna ma'dan qayta ishlangan bo'lsa, o'tgan yili bu ko'rsatkich qariyb 100 million tonnaga yetdi. Shu boisdan kon boshqarmasini haqiqiy ma'noda kombinatning yetakchi bo'linmasi, faxri, deysish mumkin. Ishlab chiqarilayotgan oltin davlatimiz xazinasini, yurtimiz iqtisodiyotini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Mana shunday yutuqlari bilan korxonaning shonli tarixi va solnomasini yaratayotgan zarafshonlik zarhunoslariga shon-sharaf-lar bo'lsin, degimiz keladi.

Bepoyon Qizilqum o'z qarida ulkan boyliklar, behisob xazinani yashirib yotgan, katta ma'dan zaxirasiga ega, davlatimiz kuch-qudrati va kelajagi bo'lgan bepoyon sahro, betakror mo'jiza bo'lib, Yaratganning xalqimizga beqiyos tuhfasidir! Bunga Qahramon shoirimiz Abdulla Oripov ham o'zining "Muruntov" she'rida bejizga "Ha, tilla saltanatini, yo'qdir boshi, uchi ham, U bilan o'lchangaydir, mamlakatning kuchi ham", deya ta'rif bermagan. Aslida jazirama issiq, qahraton sovuqda mashaqqat va sabr-qanoat bilan cho'lda nafaqat mehnat qilish, balki yashashning o'zi chinakam qahramonlik, haqiqiy jasoratdir.

Barchangizga ma'lumki, muhtaram Yurtboshimiz tomonidan tasdiqlangan 2017-2026-yillarda kombinatni strategik rivojlantirish dasturi asosida jamoamiz bilan birga keyingi 8 yilda juda qattiq mehnat qildik. Natijada 2026-yilgacha mo'ljallangan dasturini ikki yil oldin - 2024-yilda yakunlashga erishyapmiz. Buning evaziga kombinatda mahsulot ishlab chiqarish hajmi

32 foizga oshadi. Amaliy natijalarimizni tahlil etganda, yirik investitsion loyihalarning aso-



siy qismi Markaziy kon boshqarmasi hududida amalga oshirilgani ham sizlarning mehnatingiz mahsulidir.

Buning natijasida Qizilqum sahosida 5 va 7-gidrometallurgiya zavodlari, 2-gidrometallurgiya zavodi ikkinchi navbati, 103 kilometrlik temir yo'l, "Auminzo-Aman-toy", "Tomdibuloq", "Balpantov", "Turbay" kabi yangi konlar va boshqa zamonaviy obyektlar ishga tushirilgani kon-metallurgiya tarixida yangi sahifa ochdi. Buning evaziga hududda 10 mingga yaqin yangi ish o'rni yaratilib, unga asosan yoshlar ishga qabul qilindi. Yana shuni alohida ta'kidlash joizki, boshqarmaning "Muruntov" koni, 2-gidrometallurgiya zavodi, Avtomobil, Temir yo'l transporti boshqarmalari, Tashqi suv ta'minoti birlashgan energoxizmati va boshqa muhim ishlab chiqarish tarmoqlari o'zining yuqori samarasini berib kelyapti.

Bugungi quvonchli kunda kon boshqarmasida ishlab, uning rivojiga o'z hissasini qo'shgan insonlar mehnatini e'tirof etish juda o'rinni bo'ladi. Darvoqe, o'z davrida rahbarlik lavozimlarida ishlagan barcha hamkasblarimizning xizmatlari alohida tahsinga munosibdir. Ular izidan Qahramonlar, Davlat mukofoti sohiblari, konchilik va metallurgiyadek mashaqqatli sohaning jonkuyar vakillari yetishib kelmoqda. O'zbekiston

Qahramoni Farhod Soyibov, "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sanoat xodimi" faxriy unvoni sohiblari Yuldash G'aniyev, Karim Samatov, Sayfiddin Bahronov, "Mehnat shuhrati" ordeni sohibi Elmurad Xalikulov, "Do'stlik" ordeni sohiblari Sanam Abdullayeva, Andrey Kuleshov, "Shuhrat" medali sohiblari Feruza Karimova, Zohiddin Bobayev, Ixtiyor Usmonov, "Kelajak bunyodkori" medali sohibi Ulug'bek Quvondiqov, "Mard o'g'lon" Davlat mukofoti sohibi Davron Namozov va boshqalar shular jumlasidandir. Ular izidan munosib shogirdlar, yosh mutaxassis rahbarlar yetishib kelayotgan quvonarlidir, albatta. Farhod Cho'liyev, Hamid Kenjayev, Sardor Polvonov, Andrey Subbotin, Sherzod Kamolov, Saodat Boboyorova, Ulug'bek Ernazarov, Zafar Sharipov va boshqa yoshlarni misol keltirish mumkin. Bugun ular o'zlariga bildirilgan ishonchni har tomonlama oqlab kelishayapti. Shunday bilimli, Vatanga sadoqatli yoshlarimiz ko'paysa, kombinat kelajagi ishonchli qo'llarda bo'lishi muqarrar.

Hozirda nafaqat ishlab chiqarish, balki ishchi-xodimlarimizning ijtimoiy himoyasi, yashash sharoitlarini yaxshilash ham diqqat-markazimizda. Keyingi yillarda ko'rilgan chora-tadbirlar tufayli konchilar maskani - Zarafshon shahrida xizmat ko'rsatish, ijtimoiy va kommu-

nal sohalarda jiddiy ijobiy o'zgarishlar yuz berdi. Kombinattomonidan 504 o'rinni ixtisoslashtirilgan maktab-internati, imkoniyati cheklangan bolalar uchun "Umid" maktabgacha ta'lim tashkiloti, "Favvoralar sayilgohi", akvapark, sport majmuasi, Ishchilar shaharchasi, mini stadionlar va boshqa shu kabi bunyodkorlik ishlari amalga oshirilgani bunga yaqqol misol bo'la oladi. Bugun bu inshootlar, bo'linmalarda olib borilgan obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari, ayniqsa, hamkasblarimiz o'z qo'llari bilan yaratgan bog'rog'lar tarovatidan ko'ngillarini yayraydi, havas va hayratga tushmaydi. Biz, bundan keyin ham Zarafshon shahri aholisi uchun ijtimoiy ahamiyatga molik binolarni qurib berishga tayyormiz.

Hali oldimizda juda katta marralar turibdi. Sizlar bilan birgalikda 2030-yilgacha kombinatni barqaror rivojlantirish dasturini amalga oshirishimiz zarur. Bu yo'lda fidoyilik ko'rsatishlarigizga ishonaman.

Fursatdan foydalanib, sizlarni yana bir bor qutlug' sana bilan chin qalbidan tabriklayman.

Sizlarga sog'lik-salomatlik, oilaviy tinchlik-xotirjamlik, xonadonlaringizga fayzu baraka tilayman!

Yubileylar barchangizga muborak bo'lsin!

## Qutlov

# MEHNATINGIZ E'TIROFGA MUNOSIB

### Qadri Markaziy kon boshqarmasi jamoasi!

Sizlarni Zarafshon shahar hokimligi va shahar jamoatchiligi nomidan kon boshqarmasi tashkil topganligining 60 yilligi munosabati bilan qizg'in tabriklaymiz.

Markaziy kon boshqarmasi tarkibidagi korxonalar va tashkilotlarda mehnat qilayotgan konchilik va metallurgiya sohasi fidoyilari faqat yaxshi ishlashni emas, balki yaxshi yashashni ham bilishadi. Shahrimiz aynan ushbu zaminda qad rostlagan korxonalar bilan birga paydo bo'ldi va barcha infratuzilmaga ega zamonaviy, ko'rkam manzilga aylandi. Shu boisdan, Zarafshon shahri buniyod etilishi Markaziy kon boshqarmasining shakllanish va rivojlanish jarayonlari bilan chambarchas bog'liqdir.

Navoiy kon-metallurgiya kombinatining Zarafshon shahrini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi o'rini alohida ta'kidlamoqchiman. So'nggi yillarda mazkur korxonada yordamida shahrimizda ijtimoiy ahamiyatga molik qator obyektlar qurilib, foydalanishga topshirildi. Xususan, kombinat homiyiligi va tashabbusi bilan o'z faoliyatini boshlagan "Umid" maktabgacha ta'lim tashkiloti chin ma'noda mehr maskaniga aylandi. Ko'p tarmoqli maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilari bugun sog'lom hayotga qaytayotganligi qanchadan-qancha oilalar, ota-onalarga quvonch, umid baxsh etmoqda. Kombinattomonidan xizmatlari tufayli Zarafshon shahri, Tomdi, Uchquduq tumanlaridagi yoshlar uchun zamonaviy 504 o'rinni ixtisoslashtirilgan maktab-internati, "Favvoralar sayilgohi", "Kamalak" akvaparki barpo etildi, "Neptun" suv havzasi qayta rekonstruksiya qilindi.

Eng muhimi, bugun insonlar Istiqlol islohotlari mohiyatini teran anglagan holda, ezgu ishlarga o'z hissalarni qo'shmoqdalar. Xususan, Investitsiya dasturiga muvofiq "Arel Konfeksiyon" MCHJ XK hamda "Zarafshon oyna" MCHJ tomonidan yirik loyihalar, Birlashgan Arab Amirliklarining "Masdar" kompaniyasi tomonidan Markaziy Osiyodagi eng yirik shamol elektr stansiyasi qurilishi ham Zarafshon shahrining yangicha qiyofa kasb etayotganidan darakdir.

### Qadri do'stlar!

Bugun shonli yubiley arafasida mehnati tahsinu e'tirofga munosib siz, konchi va metallurglar, jamoamiz barcha vakillarini qutlug' sana bilan yana bir bor qizg'in va samimiy tabriklayman. Sizlarga mustahkam sog'lik, mehnatda yangi muvaffaqiyatlar, oilaviy hayotingizda farovonlik va baxt tilayman. Bayramingiz muborak bo'lsin, azizlar!

Nazirbek RAXMONOV,  
Zarafshon shahar hokimi

# ASRGA TATIGULIK



# YIL

**2024-yil Markaziy kon boshqarmasi jamoasi uchun alohida ahamiyatli va shukhlidir. Chunki, bu yil korxonada tashkil topganligining 60 yilligi hamda uning tarkibidagi 2-gidrometallurgiya zavodi va Tashqi suv ta'minoti birlashgan energoxizmatining 55 yilligi qo'shaloq tantana sifatida nishonlanmoqda.**

Qizilqum vohasining bugungi iqtisodiy salohiyati, qurilishi va madaniyati yuksalib borayotganligi, hech shubhasiz, Navoiy kon-metallurgiya kombinati bilan chambarchas bog'liq va bunda Markaziy kon boshqarmasi jamoasining o'zining beqiyos hisssasi bilan faol ishtirok etib kelmoqda. Keyingi yillarda davlatimiz va kombinat rahbariyati tomonidan korxonamizda kon-transport jihozlari va texnikalarini modernizatsiyalashga katta e'tibor qaratilmoqda.

Kon boshqarmasi bo'linmalari yangi texnika va texnologiyalar bilan ta'minlanib, tejamkor, innovatsion ishlanmalar, mutaxassislarining izlanishlari asosida ratsionalizatorlik takliflari ishlab chiqarishga joriy etilayotganligi bois barcha jabhalarda yaxshi natijalar qo'lga kiritilayapti. Yangi konlarni ochish, korxonalar

larni modernizatsiyalash ishlarining samarasi o'laroq respublikamiz xazinasiga oltin yetkazib berish hajmi yildan-yilga oshib bormoqda. Birgina, oxirgi yillar misolidagi qaraydigan bo'lsak, "Balpantov", "Tomdibuloq" hamda "Turbay" konlarida 1,6 mingga yaqin ish o'rinlari ochildi. Qanchalik qiyin bo'lmasin, bugun biz faqat oldinga qarab boryapmiz.

2-gidrometallurgiya zavodi mamlakatimiz metallurgiya sanoatining yuqori potensial va ko'rsatkichlarga ega asosiy ishlab chiqarish korxonasi. 50 ming tonna sanoat asbob-uskunalarini va metall konstruksiyalarini yig'ishni o'z ichiga olgan, qurilish hajmi 800 ming kubometrni tashkil etgan 2-gidrometallurgiya zavodining inshootlari 26 oy mobaynida barpo etildi. Qisqa muddatda suvsiz cho'lining og'ir sharoitlarida 80 kilometr temir yo'l va 100 kilometr avtomobil yo'llari, 280 kilometr yuqori voltli elektr uzatish tarmog'i, 208 kilometr uzunlikda Amudaryodan suv uzatish noyob inshooti, yirik oltin qazib olish kon-

leksi, qurilish industriyasining quvvatli bazasi barpo etildi. 1967 yilning 1 mart kuni "Muruntov" konidagi ilk ommaviy portlash ishlari cho'lining abadiy tinchini buzdi. 1969-yilning 21 iyul kunida 2-gidrometallurgiya zavodida og'irligi 11 kilogramm 820 grammni tashkil etgan birinchi oltin quymasi quyildi.

Tarixiy sanalar va bayramlarni yutuqlar bilan kutib olish 2-gidrometallurgiya zavodi ishchi-xodimlari uchun yaxshi an'anaga aylangan. Yuqori tashkilotchilik, mustahkam tartib-intizom hamda mas'uliyatni o'zida mujassamlashtirgan ahlil jamoaning fidokorona mehnati bilan zavodda shu kunga qadar 1,3 milliard tonnadan ortiq ma'dan qayta ishlandi.

Bugungi kunda O'zbekistonning yuqori probali oltini dunyo bozorida munosib e'tirofga sazovor bo'lishida Tashqi suv ta'minoti birlashgan energoxizmatining ham munosib o'rni bor. Suvni xalqimiz "obi hayot", deya ulug'lashida ham hikmat bor. Yirik daryolardan biri hisoblangan Amudaryo daryosidan Zarafshon ishlab chiqarish hududini doimiy suv bilan ta'minlash maqsadida, Markaziy kon boshqarmasiga qarashli Tashqi suv ta'minoti birlashgan energoxizmati tashkil etilgan.

Davomi 2-betda

## Xabar

**18-may kuni Navoiy shahridagi Sport saroyida O'zbekiston Respublikasi konchilik va metallurgiya sanoati xodimlari kuniga bag'ishlangan bayram tantanasi bo'lib o'tdi. Unda "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyati, "Navoiyuran" davlat korxonasi, "NKMK jamg'armasi" davlat muassasasida faoliyat olib borayotgan turli kasb egalari, mehnat faxriylari ishtirok etishdi.**

# KASB BAYRAMI NISHONLANDI



Tantanada kasb bayrami munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Abdulla Aripovning Navoiy kon-metallurgiya kombinati mehnat jamoasiga yo'llagan tabrigi o'qib eshittirildi.

Navoiy viloyati hokimi N.Tursunov mamlakatimizning iqtisodiy qudratini mustahkamlashda munosib hissa qo'shib kelayotgan soha xodimlarini kasb bayrami bilan qutladi.

"NKMK" AJ Boshqaruv raisi - Bosh direktori Q.Sanaqulov korxonalar jamo-

alari hamda soha xodimlari, mehnat faxriylarini kasb bayrami bilan muborakbod etib, kombinatda amalga oshirilayotgan ishlar, erishilayotgan yutuqlarga to'xtalib o'tdi.

Tadbirda ta'kidlanganidek, kombinatni rivojlantirish bo'yicha 2026-yilgacha mo'ljallangan dastur joriy yilda-muddatdan ikki yil oldin bajariladi hamda oltin ishlab chiqarish hajmi 32 foizga oshiriladi. Keyingi bir yilda Nurota tumanidagi "Pistali" koni negizida yiliga 4 million

tonna ma'danni qayta ishlash quvvatiga ega 6-gidrometallurgiya zavodi, Navoiy mashinasozlik zavodida zamonaviy tegirmonlar ishlab chiqaradigan sex ishga tushirildi. 2024-yilda 3-gidrometallurgiya zavodida yiliga 2 million tonna ma'danni qayta ishlash quvvatiga ega 2 ta yangi tegirmon bloki barpo etilmoqda. Joriy yilning o'tgan to'rt oyida 27 trillion so'mlik

mahsulot ishlab chiqarilib, belgilangan rejalarni o'rtig'i bilan bajarildi.

Yaqinda 2024-2030-yillarda kombinatni barqaror rivojlantirish dasturi tasdiqlandi. Ushbu dasturda kelgusida kombinatda mahsulot ishlab chiqarish hajmini 37 foizga oshirish vazifasi belgilandi.

Kasb bayrami munosabati bilan sohaning bir guruh ilg'orlariga O'zbekiston Respublikasi tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi va Navoiy viloyat hokimligining faxriy yorliqlari topshirildi. Shuningdek, "NKMK" AJ, "NKMK jamg'armasi" DMning bir guruh ishchi-xodimlari ko'p yillik fidokorona mehnati, sohani rivojlantirishga qo'shayotgan hisssasi uchun hamda kasb bayrami munosabati bilan turli darajadagi "Konchilik shuhrati" ko'krak nishoni va "NKMK faxriysi" unvoni bilan taqdirlandi.

Bayram tantanasi ishtirokchilariga "Farhod", "Oltin vodi" madaniyat saroylari, "Uchquduq" madaniyat uyi ijodiy jamoalari va xonadonlarining konsert dasturi namoyish etildi.

"NKMK" AJ Matbuot xizmati.

## Markaziy kon boshqarmasining 60 yilligiga

## ASRGA TATIGULIK 60 YIL

## Oxiri. Boshlanishi 1-betda

Ayni vaqtda ming nafardan ortiq turli kasb ega-lari fidokorona mehnat qilib kelayotgan korxonada eskirgan qurilmalar bosqichma-bosqich yangilanyapti. 2001-2008-yillarda ishlab chiqarish quvvati yuqori bo'lgan nasos qurilmalari o'rnatildi. Quvurlar tizimining doimiy va xavfsiz jarayoni ta'minlash uchun har bir stansiya ikkitadan sig'imi 3 ming kubometr bo'lgan temir beton rezervuarlar ham qurildi. 2014-yilda 6 va 7-nasos stansiyalari oraliq'dagi IV suv yo'li qurilishining I bosqichi, 2015-yil sentabrda II bosqichi foydalanishga topshirildi. 2018-yilda 5-nasos stansiyasidan 5-GMZ va "Auminzo-Amantoy" koni orasi-da uzunligi 23,2 kilometr bo'lgan, diametri 500 millimetrlilik texnik suv quvuri, 2019-yilda 2-GMZ qayta ishlash quvvatlarini kengaytirish loyihasiga asosan sig'imi 20 ming kubometr bo'lgan texnik suv rezervuari, 2020-yilda esa "Oltinni uyumda ishqorlash sexi" koniga uzunligi 11,3 ming metrlik suv yo'nalishi ishga tushirildi. Shuningdek, "Amudaryo-Zarafshon" nasos stansiyalariga qo'shimcha 8 ta yuqori quvvatga ega elektr dvigatelli nasos agregatlari ham o'rnatildi. Mazkur loyiha to'la yakuniga yetganida, korxonada yuzdan ziyod yangi ish o'rinlari yaratilishiga zamin bo'ladi.

Bayram kunlarida qo'lga kiritilayotgan yutuqlarda "Muruntov" koni, 2, 5, 7-gidrometallurgiya zavodlari, "Oltinni uyumda eritmaga o'tkazish sexi" koni, Zarafshon ta'mirlash – mexanika zavodi, Avtomobil va Temir yo'l transporti boshqarmalari, 9 va 7-avtokorxonalar, qo'yingki, Markaziy kon boshqarmasi tizimidagi barcha ishlab chiqarish bo'linmalari xodimlarining arzigulik ulushlari borligini mamnuniyat bilan e'tirof etish o'rindir.

So'nggi yillarda boshqarmada oltin ishlab chiqarishni ko'paytirishga yo'naltirilgan strategik loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirilayapti. Asosiy bo'ylik manbai hisoblangan "Muruntov" konida konchilik texnikasi va asbob-uskunalarini mo-

demizatsiyalash va yangilash izchil davom ettirilmoqda. Kon tarkibidagi Gamma aktivlashtirilgan tahlili markaziy laboratoriyada ish unumdorligi oshib, yiliga 1 million 970 mingtagacha geologik namunalar oltinga tekzor tahlil qilinmoqda. Bu ko'rsatkich 2024-yilda 2 million 200 mingtagacha ko'tariladi. Ish unumdorligini oshirish maqsadida, ayni vaqtda laboratoriyaning yangi binosi qurilishi ishlari jadallik bilan olib borilyapti.

Avtomobil transporti boshqarmasi transport parkida yil sayin zamonaviy kon texnika vositalarining soni ortmoqda. Birgina, 2022-yilda avtotransport boshqarmasiga 56 ta turli rusumdagi kon texnika vositalari keltirilgan bo'lsa, 2023 yilda 50 dan ortiq avtog'dargichlar, frontal yuklagichlar, zanjirli va g'ildirakli buldozerlar kabi zamonaviy kon va maxsus og'ir yuk tashuvchi transport vositalari keltirildi. Joriy yilda korxonaga yuk ko'tarish quvvati 254 tonna bo'lgan 10 ta "Komatsu

860E-1K" rusumli avtog'dargichlar olib kelinishi rejalashtirilgan edi. Hozirda shularning 4 tasi keltirilib, bittasi Avtomobil transporti boshqarmasida yig'ildi. "Muruntov" konida ish boshlagan mazkur avtog'dargich Markaziy Osiyoda foydalanishga topshirilgan shu rusumdagi ilk konchilik texnikasi hisoblanadi. Ushbu zamonaviy kon texnikasining ish unumdorligi konda mavjud avtog'dargichlarga nisbatan 15 foizga ortiq bo'lib, 5 foizgacha yonilg'ini tejash, sarf-xarajatlarni qisqartirish imkonini beradi.

Kombinatimizda mamlakatimiz taraqqiyoti, yurtimiz farovonligini ta'minlashdek ezgu ishlarga munosib hissasini qo'shayotgan, o'zining halol mehnatini ishida ko'rsatgan har bir xodim doimo hurmat va e'tiborga munosib ko'rilgan. Mustaqilligimizdan so'ng kombinatimizda faoliyat yuritayotgan 350 nafar mas'uliyatli va salohiyatli mutaxassis xodimlarning mehnati turli darajadagi Davlat mukofotlariga munosib ko'rilgan bo'lsa, shundan 150 nafari Markaziy kon boshqarmasi ishchi-xo-



dimlariga to'g'ri keladi. Bizning eng katta yutug'imiz shundaki, boshqarmamizda 21 ming nafardan ortiq ulkan jamoamiz ishchi-xodimlari "O'zbekiston Qahramoni" unvoni, oliy nishon - "Oltin yulduz" medali "Do'stlik", "Mehnat shuhrati" ordenlari, "Shuhrat" medali, "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sanoat xodimi" faxriy unvoni, "Mard o'g'lon", "Kelajak bunyodkori" kabi Davlat mukofotlari egalari, yetuk mutaxassislar, o'z ishini bilimdonlari bilan yelkama-yelka ishlab, sahroning murakkab sharoitida maqtovgacha loyiq ishlarni amalga oshirmoqdalar.

Qo'shaloq yubiley va bayramlar shodiyonalari nishonlanayotgan kunlarda boshqarmani kelgusi-

da ham katta istiqbol kutayotganligini ta'kidlashni istardim. Bo'linmalarimizda bugungi kunda amalga oshirilayotgan keng ko'lami ishlar, investitsion loyihalar va innovatsion g'oyalarning ishlab chiqarishga joriy etilayotgani hamda istiqbolli rejalariga mustahkam zamin yaratilayotganligi odamlarimizda farovon hayotidan shukronalik, ertangi kuniga esa ishonch ruhini uyg'otmoqda. Aslida barcha ishlarimiz va intilishlarimiz ana shu ezgu maqsadga qaratilgan. Shubha yo'qki, jamoamiz yutuqlarini yanada ko'paytirib, yuksak marralarni egallayaveradi.

Elmurod XALIKULOV,  
Markaziy kon boshqarmasi direktori.

Bugun Qizilqum zaminida mehnat qilayotgan har bir fuqaro mamlakatimiz iqtisodiy qudratini yuksaltirishdek ezgu maqsad bilan yashayapti. Ma'lumki, konchilik sanoatida ishlayotganlar murakkab ish va iqlim sharoitlarida yer osti boyliklarini samarali o'zlashtirishning hadisini olishgan. NKMK erishayotgan yutuqlarda Markaziy kon boshqarmasining ulkan hisssasi bor. O'zbekiston tasdiqlangan istiqbolli ruda zaxiralari bo'yicha dunyo miqyosida yetakchilardan biri hisoblanadi. Ularni qidirib topish, qazib olish va ishlab chiqarishga yo'naltirish konchilar oldida turgan ulkan vazifadir. Mana oltin yildirki, Markaziy kon boshqarmasi ishchi-xizmatchilari, muhandis-texnik xodimlari, korxonahil jamoasi ana shu vazifani sharafla bilan uddalab kelmoqda. Yaqinda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan 2024-2030-yillarda kombinatni barqaror rivojlantirish dasturi ishlab chiqildi. Mazkur dastur ijrosini ta'minlashda ham MKB jamoasi, siz aziz hamkasblar ilg'or bo'lishlaringizga ishonchimiz komil.

Eng quvonarlisi, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot, mahalliyashtirish va import o'rini bosish dasturini hisobga olgan holda, nodir metallarni qazib olish va qayta ishlash bo'yicha texnologik jarayonlarni boshqarish tizimini takomillashtirish, modernizatsiya qilish va avtomatlashtirish yuzasidan Markaziy va Shimoliy kon boshqarmalari mutaxassislarining hamkorligi, o'zaro tajriba almashinuvi bardavomdir. Bu esa o'z o'rnida oltin ishlab chiqarish va uning tannarxini pasaytirish hamda davlat rejasining bajarilishini ta'minlashda muhim rol o'ynayapti. Oltin yilda kon boshqarmasida konchilik va metallurgiya sohasida katta tajriba, ilmiy va amaliy salohiyat, ulkan kadrlar potentsiali, qudratli moddiy-texnik baza shakllanganligi va bu yuksak natijalarni berayotganligiga guvoh bo'layapmiz.

Qadrlidostlar! Ushbu shodiyona kunlarida Markaziy kon boshqarmasining 60 yilligi munosabati bilan barchangizni tabriklab, sizlarga uzoq-umr, sihat-salomatlik, oilaviy xotirjamlik, jonajon Vatanimiz mustaqilligini mustahkamlash yo'lida olib borayotgan barcha ishlaringizda ulkan muvaffaqiyatlar tilaymiz!

Naim AMONOV,  
Shimoliy kon boshqarmasi direktori.

INNOVATSION LOYIHALAR —  
TARAQQIYOT GAROVI

Har bir davlatning iqtisodiy salohiyatini butun dunyoga namoyon etadigan korxonalar bo'ladi. Shu ma'noda, 2-gidrometallurgiya zavodi mustaqil O'zbekistonning faxridir. Korxonada ishlab chiqarilayotgan oltinning oliy sifatligi xalqaro tashkilotlarning yuksak darajadagi e'tirofiga sazovor bo'layotganligi shunday deyshga to'la asos beradi.

Fikrimizning isboti shuki, 1994-yilda London quyumalar bozori Arbitraj laboratoriyasi tomonidan 2-gidrometallurgiya zavodi oltiniga optimal mahsulot maqomi berildi. Oradan to'rt yil o'tgach, Tokio sanoat mahsulotlari birjasi ham Navoiy kon-metallurgiya kombinati oltinining yuqori sifatini tasdiqlaydi.

Ayni kunlarda zavod tashkil topganligining 55 yilligi nishonlanmoqda. Ahil jamoa qutlug' sanani munosib mehnat sovg'alari bilan qarshi olayapti. Korxonada ma'danni qayta ishlash bo'yicha joriy yilning to'rt oylik rejasi

102,8 foizga, tayyor mahsulot ishlab chiqarish rejasi 104,2 foizga bajarildi. Bunda, ma'dan tayyorlash sexi maydalovchisi Sayfi Jumayev, maydalash sexi tegirmon mashinisti Zokir Boltayev, sorbsiya va regeneratsiya sexi apparatchisi Hikmat Ro'ziyev, quyultirish sexi pult operatori Roza Bobomuratova, tayyor mahsulotlar sexi ta'mirllovchi-chilangari Sobirjon Tursunov, chiqindini tashish, joylashtirish va aylanma suv ta'minoti sexi elektrgazpayvandlovchisi Melis Mavlonov, o'hatkosh kuydirish sexi apparatchisi Obidin Boboyarov, ta'mirlash-mexanika sexi ta'mirllovchi-chilangari Dilmurod Bobomurotov, elektr ta'mirlash uchastkasi elektrmontyori G'ayrat Ikromov, zavod markaziy laboratoriyasi laboranti Lyudmila Yevseyeva va shu bilan birga, korxonaning har bir a'zoning munosib hisssasi bor albatta.

Mustaqillik davri, ayniqsa so'nggi yillar 2-gidrometallurgiya zavodi, uning ahil jamoasi, malakali mutaxassislari, ishchi-xizmatchilari uchun ma'danni qayta ishlash, tayyor mahsulot ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini oshirish,

iqtisodiy samaradorlikka erishishda yuksalish davri bo'layapti. Korxonada ma'danni qayta ishlash hajmini bosqichma-bosqich oshirib borish maqsadida, "2-gidrometallurgiya zavodining qayta ishlash quvvatlarini kengaytirish" loyihasi doirasida to'rtta tegirmon bloki, boshqacha aytganda, oltin saralash korxonasining ikkinchi navbati ishga tushirildi. Shuningdek, ikki oy muddatda qurilish-montaj va o'rnatish ishlari amalga oshirilib, ishga tushirilgan, barabanning hajmi 140 kubometr bo'lgan 73-sonli sharli tegirmon zavodda soatiga qo'shimcha tarkibida qimmatbaho metall bo'lgan 160 tonna, yil davomida 1,4 million ming tonna ma'danni qayta ishlash imkonini berayapti. Mahalliyashtirilgan tarzda birinchi bor ana shunday tegirmon ishlab chiqarilishi natijasida 2 million AQSh dollaridan ortiq valuta mablag'i tejalishiga erishildi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mahsulot ishlab chiqarish samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Navoiy kon-metallurgiya kombinati bo'linmalarida joriy qilinayotgan innovatsion loyihalar korxonalarining barqaror ishlashini ta'minlash, mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirishga yo'naltirilganligi bejizga emas. Ma'lumki, qayta ishlash majmuasi bo'linmalarida ma'danni maydalash jarayoni serratizatsiya bo'lib, ma'danni qayta ishlash tannarxining asosiy qismini tashkil etadi. Ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini oshirish barobarida xarajatlarni kamaytirish uchun ushbu jarayonlarni takomillashtirish innovatsion faoliyatdan kuzatilgan maqsad-muddadidir. Katta miqdordagi ma'danni qayta ishlash nazarda tutila-

yotganligini hisobga oladigan bo'lsak, xarajatlarni kamaytirish imkonini beradigan har qanday o'zgarish qo'shimcha daromad olib kelishi turgan gap. 2-gidrometallurgiya zavodi singari ulkan ishlab chiqarish korxonasida bunday innovatsion yechimlarni joriy qilish yuqori unumdorlikni kafolatlaydi. Kombinat rahbariyati tomonidan ishlab chiqilgan innovatsion loyihalar doirasida joriy yilning 25 yanvar kunida zavodning maydalash sexida amaldagi tegirmonlar negizida nisbatan kamchiqim bo'lgan eksperimental blok ishga tushirildi. Mazkur blokda tadqiqot ishlari o'tkazish turli o'lcham va kattalikdagi ma'danni maydalash samaradorligini yuz foiz aniqlik bilan o'rganishga yordam beradi.

Zavod tarixi taraqqiyot bosqichlarini ko'p jihatdan aynan maydalash sexi samaradorligiga bog'liqligini ko'rsatib turibdi. Dastlabki davrda tegirmonlarni kapital va joriy ta'mirlashni optimallashtirish, me'yordan ortiq va favqulodda to'xtashlarning oldini olish, uskunalaridan foydalanish ko'rsatkichini oshirish, avtomatlashtirish tizimini joriy etish, tegirmon futirovkalari tuzilishi va materialini, maydalash texnologik tuzilmasini takomillashtirish hisobidan samaradorlikka erishilgan. Keyingi uch-to'rt yilda maydalashning ikkinchi bosqichida nasoslarni samaraliroq rusumdagilariga almashtirish, qo'shimcha gidrosklon qurilmalarni o'rnatish yo'li bilan yigirma oltita tegirmon bloklari modernizatsiya qilindi. Natijada zavodda qo'shimcha tegirmon o'rnatmasdan, ma'danni qayta ishlash yillik hajmini ikki million tonnadan ortiqqa oshirishga muvaffaq bo'linayapti. Taraqqiyotning zamonava-



viy bosqichida zavodning qayta ishlash quvvatlarini kengaytirish loyihasi doirasida yuqori hajm va quvvatga ega 5 ta tegirmon bloklarini qurish va korxonaning yillik qayta ishlash ko'rsatkichini 50 million tonnagacha yetkazish nazarda tutilgan edi. Maydalashning takomillashtirish tuzilmasini qo'llanish va o'z vaqtida kiritilgan foydalil tuzatishlarning samarasi o'laroq bitta tegirmon blokini qurish zaruriyatidan voz kechildi.

Kombinat, kon boshqarmasi hamda zavod mutaxassislarining yuksak kasbiy mahorati, salohiyatining yorqin nishonasi bo'lgan bunday ishlanma tufayli loyihaga ketadigan xarajatlarni qisqardi. Yana bir muhim raqamga e'tiboringizni qaratmoqchiman: zavodning bugungi yillik qayta ishlash ko'rsatkichi 51,7 million tonnani tashkil etmoqda.

2-gidrometallurgiya zavodi ishga tushirilganidan buyon har yili bir marta 3 kunga-72 soatga rejali to'xtatilar edi. Bu esa tayyor mahsulot ishlab chiqarishda yo'qotishlarga, Navoiy kon-metallurgiya kombinatining boshqa bo'linmalaridan ishchi kuchi va texnika vositalarining jalb qilinishiga sabab bo'lardi. Kombinat bosh direktori Q.Sanaqulov bundan

sakkiz yil muqaddam mutaxassislar oldiga zavodni to'xtovsiz ta'mirlash yuzasidan tashkiliy-texnik tadbirlarni ishlab chiqish vazifasini qo'ydi. Korxonada tayyor mahsulot ishlab chiqarishning yuksak maromini ta'minlashga qaratilgan bu muhim vazifani bajarish uchun zavodning har quvurlari, texnik suv, aylanma suv, bo'tana o'tkazgichlari, nasos sorbsiyasi, bo'tana taqsimlagichlari va chiqindi zumflari kabi texnologik birliklarida boqichma-bosqich modernizatsiyalash ishlari amalga oshirildi.

Eksperimental blokning barcha texnologik moslamalari Navoiy mashinasozlik zavodida mahalliyashtirildi. "MShS 55x75" rusumli tegirmonni tayyorlashda ikkilamchi metall materiallardan foydalanildi. Bundan tashqari, zaruriy qismlar NMZda seriyali ishlab chiqarilishi xarajatlarni tejashga xizmat qilmoqda. Istiqbolli innovatsion loyihalarining dadil qo'llanilishi 2-gidrometallurgiya zavodida ma'danni qayta ishlash, mahsulot tayyorlash ko'rsatkichlarini oshirish, xulosa qilib aytadigan bo'lsak, butun korxonaning taraqqiyotini ta'minlamoqda.

Nizomiddin SADRIDDINOV.

FAKT  
VA RAQAMLAR

1964-yilning 1-avgustida O'zbekiston hukumatining "Muruntov" oltin konlarini o'zlashtiruvchi korxonaga qurilishi to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

1967-yilda 2-gidrometallurgiya zavodi qurilishi boshlandi.

1977-yilda "Muruntov" koni tarkibida oltin konlaridan olingan namunalarni o'ta yuqori darajada aniqlab beradigan noyob bo'linma – Markaziy gamma-aktivlashtirilgan tahlil laboratoriyasi ishga tushirildi. Laboratoriya tahlil ishlari elektronlarni chiziqli teztatgichda birinchi kvant to'rtinchi darajada aniqlab beradigan gamma nurlari orqali olib borishi bilan noyobdir.

Hukumatimizning 1992-yildagi Zarafshon-Uchquduq mintaqasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va NKMK korxonalarini ishlarini barqarorlashtirishga yo'naltirilgan qarori kombinat tarixida yangi rivojlanish davrini boshlab berdi.

2001-2002-yillarda "Muruntov" koni tarkibida "Orica Germany" kompaniyasi texnologiyasi asosida 1-emulsion portlovchi moddalar sexi qurildi.

2011-yilda dunyoda o'xshashi bo'lmagan "KNK-270" tik-qiya konveyer majmuasi foydalanishga topshirildi. Mazkur majmua ish unumdorligini tog' jinslarini avtotransportda tashigandan ko'ra, bir necha bor oshirdi.

2013-yilda "Muruntov" konidan 44 million 135 ming kubometr tog' jinslari qazib olingan bo'lsa, o'tgan yilda bu ko'rsatkich 115 million kubometrga yetildi.

2017-yilning mart oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirmonovich Mirziyoyev ramziy tugmani bosib, "Auminzo-Amantoy" loyihasiga start berdi.

2021-yilda kislorodli-ohakli oksidlash asosida yiliga 5 million tonna ma'danni qayta ishlash quvvatiga ega 5-gidrometallurgiya zavodi foydalanishga topshirildi. Shuningdek, texnologik chiqindilarni qayta ishlashga mo'ljallangan 7-gidrometallurgiya zavodi ishga tushirildi. 2023-yilda zavodda qariyb 16 million tonna texnologik chiqindi qayta ishlanib, oltin olindi.

2022-yilda "Muruntov" koni tarkibidagi "Baltantoy", "Auminzo-Amantoy" koni tarkibidagi "Turbo" karyerlarida qazish ishlari boshlandi.

## Markaziy kon boshqarmasining 60 yilligiga

### Aziz do'stlar, hurmatli hamkasblar!

Sizlarni shonli yubileyingiz – Markaziy kon boshqarmasi tashkil etilganining 60 yilligi bilan chin qalbmizdan muborakbod etamiz.

Kon boshqarmasining tashkil etilishi nafaqat sizning jamoangiz shakllanishining, balki Qizilqum cho'lini o'zlashtirishning butun bir davrini boshlab berdi. Ahil jamoangiz 60 yildan buyon fidokorona mehnat, yuksak professionallik va ishonib topshirilgan muhim vazifani ongli anglashi bilan barqaror va yuqori samarali ishlarini namoyish etib kelmoqda.

Tarixan qisqa davrda minglab ishchi va mutaxassislarining jasoratli mehnati tufayli bepoyon sahroda rivojlangan ishlab chiqarish, transport va ijtimoiy infratuzilmani o'zida mujassam etgan, nafaqat yurtimiz, balki chet ellarda ham mashhur bo'lgan zamonaviy ishlab chiqarish majmuasi qad rostladi. Bu zaminda mazkur sanoat majmuasi negizida Zarafshon shahri barpo etildi.

Markaziy kon boshqarmasining ko'pining kishilik jamoasi keyingi yillarda yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lami yangilanishlar, iqtisodiyot tarmoqlarini tubdan isloh etish va modernizatsiya qilishda faol ishtirok etayotgani tahsinga sazovordir.

Bugungi kunda kon boshqarmasi kombinatimizning nodir metallarni ishlab chiqarish bo'yicha eng ilg'or texnologiyalarni o'zida mujassam etgan zamonaviy, yuqori intellektual salohiyatga ega, asosiy bo'linmasi hisoblanadi. Korxonada o'z ishiga fidoyi, yuqori malakali mutaxassis va rahbarlar, vatanparvar insonlar mehnat qilishadi. Sizlarning jamoangiz boshqa bo'linmalar uchun namunadir.

"Qizilqum" KB cizlar bilan juda yaqin sanoat va madaniy aloqalarga ega. 1964-1969-yillarda 1-GMZ tajriba sexi va Markaziy ilmiy-tadqiqot laboratoriyasida "Muruntov" ma'danlaridan oltin ajratib olishning gravitatsion-sorbtsiyali texnologiyasini ishlab chiqish va yarim sanoat sharoitida sinash ishlari olib borildi. Tajriba-tadqiqot ishlarini tugatgandan so'ng, 1-GMZ tajriba sexi jamoasi 2-GMZ jamoasiga qo'shilib, zavodning birinchi, keyin esa ikkinchi navbatini muvaffaqiyatli ishga tushirishga muvaffiq bo'ldi. 1-GMZ tajriba sexi va Markaziy ilmiy-tadqiqot laboratoriyasi mutaxassislari ishtirokida 2-gidrometallurgiya zavodida butun texnologik jarayon modellashtirildi va birinchi sinov oltin quymasi olindi.

NKMK tashkil etilgandan buyon ham ishlab chiqarish, ham ijtimoiy-madaniy sohalaridagi aloqalarimiz mustahkamlanib, rivojlanib bormoqda. Jamoalarimiz doimo hamkorlikda ishlab, kombinat rahbariyati tomonidan qo'yilgan har qanday vazifalarni hal qilib kelmoqda. Bundan keyingi hamkorligimiz ham samarali bo'ladi va rivojlanadi, degan umiddamiz.

Ushbu tantanalari kunda sizlarni yana bir bor 60 yillik yubileyingiz bilan tabriklaymiz!

**Avazxon EZOXNOV,**  
"Qizilqum" kon boshqarmasi direktori.

## Yubiley muborak, aziz hamkasblar!

Bugun Qizilqum javohiri sanalmish Markaziy kon boshqarmasi tashkil etilganligining 60 yilligi katta tantanalalar bilan nishonlanmoqda.

Shu munosabat bilan Markaziy kon boshqarmasi tasarrufidagi mehnat jamoalarini, u yerda fidoiylarcha mehnat qilayotgan soha xodimlarini shonli yubiley munosabati bilan samimiy muborakbod etamiz!

Ulkan ishlab chiqarish resurslariga ega Markaziy kon boshqarmasida texnik va texnologik modernizatsiya jarayonlari jadalik bilan olib borilmoqda. Bu sa'y-harakatlar Navoiy kon-metallurgiya kombinatining oltin ishlab chiqarish bo'yicha jahonda salmoqli o'rin egallashiga imkon bermoqda. Bir so'z bilan aytganda, Markaziy kon boshqarmasi haqli ravishda mamlakatimiz tog'-kon sanoatining bayroqdori sanaladi.

Navoiy kon-metallurgiya kombinatining "yuragi" sanalmish – "Muruntov" koni, 2-gidrometallurgiya zavodi va boshqa qator korxonalarini o'z tasarrufida birlashtirgan Markaziy kon boshqarmasi bilan har qancha faxrlansak, har qancha g'ururlansak, arzidi.

Sir emas, kombinatning "qadam yetgan" hudud obod maskanga aylanadi. Bunga ko'plab misollar keltirish mumkin. Siz yashayotgan Zarafshon shahri ham bundan mustasno emas. Bundan oltin yil avval yaydoq cho'l bo'lgan makonda bugun yirik sanoat majmuasi, zamonaviy shahar bunyod bo'ldi. Hududning istiqbolini yanada porloq. So'nggi yillarda qirib bitkazilib, foydalanishga topshirilayotgan zavod va konlar, yangi ishlab chiqarish quvvatlari shundan dalolat beryapti.

Aziz hamkasblar!

Bugun o'zaro do'stlik va hamkorlikning namunasini amalda o'z isbotini topgan jamoa ahli mamlakat istiqbolini mustahkamlash yo'lida fidokorona mehnat qilmoqda. Ana shunday samarali mehnatingizga qut-baraka, oilalaringizga sog'lik-salomatlik tilayman!

Zarafshon oltini jonajon Vatanimizning gullab-yashnashi va yorqin kelajagining garovi bo'lib uzoq yillar xizmat qilaversin!

Bayramingiz yana bir bor muborak bo'lsin, aziz soha xodimlari!

**Toliboy YULDASHEV,**  
Janubiy kon boshqarmasi direktori.

**Tashqi suv ta'minoti birlashgan energoxizmati o'zining 55 yilligini nishonlayotgan shu kunlarda hududga suv keltirishdek xayrli ishning boshida turgan, bu yo'lda mashaqqat chekkan insonlar xizmati, soha ishining sir-asrorlarini kelajak avlodga yetkazish, muhim sanalarni doimiy olish ham qarz, ham farzdir. Zarafshon ishlab chiqarish zonasini doimiy suv bilan ta'minlash maqsadida, 1964-yil 11-iyunda Amudaryo daryosidan Zarafshon shahrigacha 208 kilometrlik masofada diametri 1220 millimetrlik quvurlarni montaj qilish ishlari boshlanib, bu muhim inshoot 1969-yil 27-mayda foydalanishga topshirildi.**

Ishlab chiqarish quvvatlari oshgani hamda qo'shimcha suvga ehtiyoj tug'ilganligi tufayli oradan to'qqiz yil o'tgach, ikkinchi suv yo'nalishi ishga tushirildi. Ayni paytda ming kilometrga yaqin suv quvurlari orqali Zarafshon va Uchquduq shaharlari, "Bessopan", "Muruntov", "Dovgiztov", "Auminzo – Amantov" ishlab chiqarish korxonalarini texnik va ichimlik suvi, "Bessopan - Muruntov" sanoat maydoni korxonalarini issiqlik energiyasi bilan ta'minlash ahil jamoamiz zimmasida. Birlashgan energoxizmat tarkibidagi 4 ta sex, 4 ta uchastka va 2 ta laboratoriya ishchi-xizmatchilari, muhandis-texnik xodimlari ana shunday maqsadni amalga oshirish uchun fidokorona mehnat qilib kelishyapti.

Bosh suv olish inshootlari sexi Amudaryo daryosining qirg'og'ida, Xorazm viloyati Tuproqqal'a tumani "Sarimoy" qo'rg'onida joylashgan. Sexda Amudaryo daryosidan loyqalik darajasi yuqori bo'lgan suv olinib, tozalash inshootida poliakrilamid yordamida tindirilib, loyqalik darajasi pasaytirilgan texnik suvga aylantirilib, nasos qurilmalari orqali magistral suv quvurlariga yuboriladi. Jamoa 1-nasos stansiyadan 2-nasos stansiyasigacha bo'lgan 51,7 kilometr masofadagi suv quvurlarini ta'mirlash, xizmat ko'rsatish ishlari bilan shug'ullanadi.

Tashqi suv ta'minoti sexi jamoasi "Sarimoy" qo'rg'oni va Zarafshon shahri oralig'idagi 4 ta, 2, 3, 4, 5-nasos stansiyalardagi barcha qurilmalarni ta'mirlaydi va xizmat ko'rsatadi. Maydon ichi suv ta'minoti sexining asosiy vazifasi "Bessopan" ishlab chiqarish maydoni, Zarafshon, Uchquduq shaharlari, Dovgiztov qo'rg'oniga ichimlik va texnik suvni nasos qurilmalar orqali yetkazib berishdan iborat. Sex tarkibida texnik suvni filtrlab, zararsizlantirib, iste'molchilariga ichimlik suvi sifatida yetkazib beradigan 4 ta stansiya bor.

Sanoat maydonlari issiq suv ta'minoti va kanalizatsiyasi sexi 2019-yilning mart oyidan Tashqi suv ta'minoti birlashgan energoxizmati tarkibiga kiritildi. Sex "Bessopan-1", "Bessopan-2", "Muruntov", "7- GMZ" qozonxonalarini, muhandislik tarmoqlari va gaz bilan ta'minlash bo'linmalarini birlashtiradi va "Bessopan", "Muruntov" ishlab chiqarish maydonlarini uzluksiz ravishda issiqlik, bug', issiq va sovuq suv, gaz bilan ta'minlab turadi.

Tarmoqlar va podstansiyalar bo'linmasi 1, 2, 3, 4, 5-nasos stansiyalarini uzluksiz ravishda elektr energiya bilan ta'minlab turish, elektr dvigatellarini, murakkab tuzilmali avtomatika va ularning himoyasi, yuqori kuchlanishga ega elektr uskunalarni ta'mirlash va xizmat ko'rsatish vazifalarini bajaradi. Magistral quvurlar, qurilmalarni ta'mirlash va ekspluatatsiya qilish uchastkasi ming kilometrlik masofadagi katta diametrlilik quvurlarni, zulfilarni ta'mirlash va montaj qilish, avariya holatlarini bartaraf etish ishlari olib boradi.

Mavjud 61 ta avtotransport va yo'l qurilishi texnika vositalari Mexanizatsiya va avtotransport bo'linmasiga jamlangan. Bo'linma suv quvurlari va nasos stansiyalarida avariya holatlarini bartaraf etishda zudlik bilan xizmat ko'rsatadi, yuklarni tashib beradi, vaxta smena ishchilarini manzilga yetkazadi.

Ishlab chiqarishni tayyorlash va inshootlarni ta'mirlash bo'linmasi bino va inshootlarni ta'mirlash, ko'kalamzorlashtirish, hududni tozalash, tartibga keltirish, badiiy bezash va boshqa xo'jalik ishlari bilan shug'ullanadi.

Markaziy elektr laboratoriyasi Amudaryo daryosidan suv yig'ishdan tortib, "Bessopan" filtrlovchi stansiyalarigacha bo'lgan masofadagi texnologik jarayonda ishtirok etadigan yagona uchastka hisoblanadi. Laboratoriya avtomatik va boshqaruv texnologiyalarini montaj va ta'mirlash, barcha aloqa turlari, teleavtomatika, videokamera nazorati, o'lchash vositalari va asboblari, dispetcher boshqaruv uskunalari, yong'in va muhofaza signallari, avtomatik podstansiyalar rele himoyalarni ta'mirlaydi va yuqori

## E'Zoz

# MEHNAT FAXRIYLARIGA EHTIROM KO'RSATILDI

**O'zining oltin besh yildan ortiq tarixiga ega Navoiy kon-metallurgiya kombinatida har qanday korxonaga jamoasi ibrat olishga arzigulik an'analar shakllangan. Bu, avvalo mehnat kishisiga, kombinatning nafaqat mamlakatimiz, balki dunyo miqyosida shuhrat qozonishga hissa qo'shgan minglab turli kasb egalari, ularning oila a'zolari va farzandlariga bo'lgan munosabat bilan bog'liqdir.**

O'z-o'zidan ma'lumki, Navoiy kon-metallurgiya kombinatini tashkil etish, asiy sahro bag'ridagi boyliklarni o'zlashtirish maqsadida Qizilqum cho'lida yo'llar, zamonaviy infratuzilmaga ega shaharlar va sanoat obyektlari qurish, elektr uzatish tarmoqlarini barpo etishdek g'oyatda murakkab va mashaqqatli ishlarning boshida turgan jasoratli insonlarning

aksariyati oramizda yo'q. O'sha paytda navqiron yigitlik yoshida bo'lganlar esa bugun nafaqada. Kombinatlarda hamisha "Hech kim va hech narsa unutilmaydi" degan shioriga amal qilib, o'z mehnati bilan korxonada taraqqiyotiga ulush qo'shgan, bugungi kunda bu yorug' olamni tark etganlar xotirlanadi. Mehnat faxriylari, nogironligi bo'lganlar, ijtimoiy himoyaga muhtojlarning

uchun "Amudaryo-Zarafshon" nasos stansiyalarining suv keltirish hajmini 2023-yilgacha 40 foizga ko'paytirish zarurati tug'ildi. Bu bir yilga qo'shimcha 33,2 million kubometr, soatiga 3800 kubometri tashkil qiladi. Shu boisdan Zarafshon qurilish boshqarmasi hamda jamoamiz mutaxassislari tomonidan umumiy qiymati 115 million dollar bo'lgan "2018-2024-yillarga mo'ljallangan Amudaryo - Zarafshon suv quvurining 3-liniyasini qurish va nasos stansiyalarini rekonstruksiya qilish" loyihasi doirasidagi ishlar jadal olib boril-

ba uyushmasi qo'mitasining diqqat markazida bo'lyapti. Keyingi besh yilda "Amudaryo-Zarafshon" suv quvurlari nasos stansiyalari, "Sazakino" maydoni va korxonaning barcha sex, bo'linmalarini ishchi-xodimlari uchun dam olish, ovqatlanish va yuvinish xonalari qayta ta'mirlandi. Ishchi-xodimlarning ovqatlanish xonalari zarur jihozlar, mikroto'liqlik pech, sovutkich va boshqa buyumlar bilan ta'minlandi. "Amudaryo-Zarafshon" suv quvurlari nasos stansiyalari va "Sazakino" maydoni ishchi-xodimlari dam olish vaqtlarini maroqli

# SUV KELTIRGAN ELDA AZIZ



kuchlanuvchi ishlab chiquvchi sinovlarni amalga oshiradi.

Kimyoviy bakteriologik laboratoriyaning vazifasi Amudaryo daryosidan olinayotgan daryo suvini, tozalash inshootlaridan chiqqan texnik suvni va Zarafshon, Uchquduq shaharlari, Muruntov va Dovgiztov qo'rg'onlari yetkazilayotgan ichimlik suvining sifatini maxsus tahlillar bilan nazorat qilishdan iboratdir.

Dispetcherlik xizmati ishlab chiqarish va texnologik jarayonni boshqarish, suv ta'minoti trassasi bo'ylab avtotransport harakati, rejaviy ta'mirlash, nosozlik holatlarini tiklovchi ishlarni tashkil etadi.

Barcha tarkibiy sex, bo'linma va laboratoriyalarni uzluksiz ish jarayonlarini Kadrlarni kompleksiyalash va hisobga olish, ishlab chiqa-

mokda. Hozirgacha uchinchi suv yo'nalishi qurilishida 147,2 kilometr masofada diametri 1220 millimetrlilik quvurlar montaj qilindi. Bu, rejadagi montaj ishlari 92 foizga bajarildi, demakdir.

O'zining shonli tarixiga ega korxonaga o'tgan davrda P.Patrin, A.Ruban, V. Poverennov, Yu.Sherbanyov, I.Martinenko, T.Mextiyevlar rahbarlik qilishgan. Ko'p yillik samarali mehnatlari bilan korxonaga ravnaqiga o'z hissalarini qo'shgan xodimlarimiz S.Dustmuradov, L.Tolmachyova, K.Atadjanov, N.Gadoyev, Yu.Yoldashev, V.Lobov, A.Matveyev, R.Matkarimov, B.Pollikov, B.Radjabov, S.Sapayev, K.Saparov, M.Sultanov, A.Tkachev, G.Ermedovlarning nomlarini hurmat bilan tilga olamiz. X.Nurmatov, B.Ermazarov, S.Juravlev, Yu.Fayziyev, B.Ismoilov, O.Kutyayev, X.Mustapayev, S.Djumayev, N.Djabborov, S.Va-

o'tkazishlari uchun 3-Birlashgan kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan badiiy kitoblar, trenajerlar, yugurish yo'lakchasi va sport anjomlari ajratildi. Kasaba uyushmasi tomonidan "Sazakino" maydoni ishchi-xodimlari uchun 2022-yilda, Energoxizmat hududidagi sport majmuasida esa 55 yillik bayram arafasida sun'iy qoplama futbol o'yingohi foydalanishga topshirildi.

Nafaqada bo'lgan ishchi-xodimlarga ham davolanish va dam olish maskanlariga yo'llanmalar ajratilmoqda. Ijtimoiy himoyaga muhtoj ishchi-xodimlar va yolg'iz pensionerlarga moddiy yordam va oziq-ovqat to'plamlari ajratilmoqda. Ishchi-xodimlar bo'sh vaqtlarini samarali o'tkazishlari uchun ommaviy-madaniy tadbirlar va sport musobaqalari dasturlar asosida o'tkazilib kelinmoqda.

Xorazm viloyati Tuproqqal'a tumani "Sarimoy" qo'rg'onida yashovchi "Navoiy kon metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyatiga qarashli korxonalar ishchi-xodimlari va ishlamaydigan aholi farzandlari uchun kunduzgi "Sarimoy" bolalar sog'lomlashtirish oromgohiga bepul yo'llanmalar ajratilayapti.

Tashqi suv ta'minoti birlashgan energoxizmati xodimlaridan Komil Xalbayev, Sattor Do'stmuradov, Sergey Juravlev, O'ktam Shonazarov, Sanjar Dustmuradov, Sagit Almuxametov, Sergey Vaxonin, Jumabay Baltayev, Lyudmila Tolmacheva, Baxrillo Ismatov, Berdilla Kulnarov, Shavkat Davletov, Axror Xamrayev va Dilrabo Egamberdiyevalar turli darajadagi "Konchilik shuhrati" ko'krak nishoni, Mardon Kuchkarov, Adilbek Sapayev, Farxad Xudekov, Vladimir Boyko, Erxaboy Saytmamedov, Sattor Dustmuradov, Baxrillo Ismatov, Oguljan Abdireymova, Andrey Koksharov, Rasul Raximov va Abdivali Qurbanovlar "NKMK faxriysi" unvoni bilan taqdirlanganlar.

Xalqimizda "Suv keltirgan – elda aziz" degan hikmat bor. Bu naql zamiridagi mazmun-mohiyat jamoamiz har bir a'zoriga kuch-quvvat, mashaqqatli mehnatlari samarasidan binihoya qoniqish bag'ishlaydi va yangi marralarga ruhlan-tiradi. Shu boisdan jamoa oldida turgan vazifalar sharaf bilan uddalanishiga shubha yo'q.

**Mansur QUDRATOV,**  
MKB Tashqi suv ta'minoti birlashgan energoxizmati boshlig'i.

holidan xabar olinib, ularga moddiy yordam ko'rsatiladi.

Bunday xayrli va savobli tadbirlar, ayniqsa kasb bayrami – O'zbekiston Respublikasi konchilik va metallurgiya sanoati xodimlari kunida rejali tarzda amalga oshiriladi. Jumladan, kasb bayrami arafasida konchilik va metallurgiya sanoati faxriylari Kengashi, Navoiy kon-metallurgiya kombinati rahbariyati hamda NKMK xodimlari kasaba uyushmasi Kengashi hamkorligida Navoiy shahridagi "Oqshom" to'yxonasida va kombinat bo'linmalarini joylashgan shaharlarda istiqomat qilayotgan mehnat faxriylari uchun bayram dasturxonini tashkil etildi. Front orti faxriylari bo'lgan to'qqiz nafar kishining har biriga 5 million so'mdan pul mukofoti ajratildi. "NKMK" AJ Boshqaruv raisi – Bosh

direktori Q.Sanaqulov va O'zbekiston konchilik va metallurgiya sanoati faxriylari Kengashi raisi A.Farmanov ishtirok etgan bayram tadbirida navoiylik bir guruh mehnat faxriylariga Kengashning "Faol faxriy" ko'krak nishoni topshirildi.

O'zbekiston Respublikasi konchilik va metallurgiya sanoati faxriylari Kengashi tomonidan tashkil etilayotgan yoshlarni kattalarga hurmat, Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash va uch avlod uchrashuvi, o'z mehnat jamoalarida yosh mutaxassislariga boy tajribalarini o'rgatish, sog'lom hayot tarzi va uzoq umr ko'rishga qaratilgan profilaktik tibbiy maslahatlar, keksalarning ijtimoiy muammolarini hal etish, sport va madaniy-ma'rifiy tadbirlarda faol ishtirok etayotgan pensionerlar, Janubiy kon boshqarmasi "Zarmitan"

konidan Mavlon Gadoyev, "Navoiyuran" davlat korxonasidan Tamaraxon Arikmanbetova, Shimoliy kon boshqarmasidan Yaxiya Saparov, Markaziy kon boshqarmasidan Leoned Melnikovlar shunday mukofotlarga munosib ko'ridi.

Navoiy kon-metallurgiya kombinati kasaba uyushmalari Kengashi mablag'lari hisobidan mehnat faxriylari, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga 625 ta oziq-ovqat to'plamlari tarqatildi. Kombinatlarda konchilik kasaba uyushmasi Kengashi xodimlari korxonada uzoq yillar samarali mehnat qilib, vafot etgan insonlar mangu qo'nim topgan manzil – Navoiy shahri vokzal hududida joylashgan qabristonda bo'lib, ularni xotirladilar.

N.XAYRIDINOV.

■ Burch

# NOYOB EKSPONAT MUZEYGA TOPSHIRILDI

“NKMK tarixi” muzeyiga “NKMK” AJ, “Navoiyuran” DK, “NKMK jamg’armasi” DM jamoalari vakillari bilan bir qatorda, viloyatimizda faoliyat olib borayotgan ko’pgina tashkilot va korxonalarining ishchi-xodimlari ham tashrif buyurishmoqda.



O’tgan yil oxirlarida “NKMK” AJ va “Navoiyuran” DK obyektlarining yong’in xavfsizligini ta’minlashni tashkil etish markazi boshlig’i, polkovnik Xayrullo Zoirov boshchiligidagi bir guruh xodimlar muzeyga tashrif buyurishgan edi. Ular mavjud suratlar va ekspozitsiyalar orqali NKMK tarixi, korxonalar rahbarlari to’g’risidagi ma’lumotlar, kombinatning bugungi kuni haqida hikoya qiluvchi kitoblar bilan yaqindan tanishdilar, esdalik uchun suratga tushib, o’z taassurotlari bilan o’rtoqlashdilar. Guruh ketishga chog’lanayotganida polkovnik Xayrullo Nurilloevich:

– Ancha yillar muqaddam uchquduqlik yaxshi tanishim “Cizga bir teshik toshni sovg’aga olib keldim, u million yillik tarixga ega. Bu Uchquduqdagi Jaraquduqning tosh o’rmonidan, sizning ham

umringiz uzoq bo’lsin, degan niyatda olib keldim.

Bugun muzeyda “Tosh o’rmon” suratini ko’rib, esimga tushdi. Ana shu noyob toshni muzeyga olib kelib topshiraman, uni el ko’rish kerak, bu madaniy merosning joyi ana shu yerdadir, – dedilar.

– Juda ham yaxshi bo’lar edi, kutib qolaman, – deb javob berdim.

Polkovnik Xayrullo Zoirov so’zlarining ustidan chiqdilar. U kishi paleontologlar xulosasiga ko’ra, million yillik tarixga ega Tetis ummoni suv osti o’simlik dunyosining toshga aylangan namunasi muzeyga topshirdilar. Hozirgi kunda u noyob eksponat sifatida muzeyimizda saqlanmoqda.

Dilrabo RAXMATOVA,  
“NKMK tarixi” muzeyi mudiri.

■ Sport

## QILICHBOZLARIMIZ G’OLIB

Joriy yilning 13-14 may kunlari Toshkent shahrida qilichbozlik bo’yicha kattalar o’rtasida O’zbekiston Respublikasi chempionati bo’lib o’tdi. Musobaqada respublikamizning barcha viloyatlaridan 250 nafar sportchilar qizlar va o’g’il bolalar ishtirok etishdi.



Yuqori sport kurashlari ostida o’tgan musobaqalarda “So’g’diyona” jismoniy tarbiya va sport klubi Bolalar va o’smirlar sport maktabining 8 nafar sportchilari ham o’z mahoratlarini namoyish etdilar. O’g’il bolalar jamoasi Navoiy kon-metallurgiya kombinati hamda viloyat sharaflini munosib himoya qildilar. “So’g’diyona” JTSK tarbiyalanuvchilari Emil Kagirov, Aleksandr Pushkin, Kamoliddin Axtamov hamda viloyat

sport maktabi vakili Meyrixan Tururovdan iborat viloyatimiz o’g’il bolalar jamoasi chempionatida g’oliblikni qo’lga kiritdi. Qilichboz sportchilarimiz erishgan muvaffaqiyatda bor kuch va imkoniyati, mahoratini iqtidorli sportchilarni tarbiyalashga sarflayotgan oliy toifali murabbiy Albina Abduraxmonovaning xizmati beqiyosdir.

Sohiba QILICHEVA,  
“So’g’diyona” JTSK direktori.

■ Dolzarb mavzuda suhbat

Korrupsiya butun insoniyatga, jamiyat asosiga, iqtisodiy taraqqiyotga zarar keltiradigan, qonun ustuvorligini buzadigan va xalqning davlat siyosatiga ishonchini susaytiradigan, adolatni yo’q qilib, inson qaddini bukadigan, aqldan ozdirib, nafs quliga aylantiradigan, odamlar xavfsizligiga tahdid soladigan ichki dushmandir. Shunday illatlarni yo’qotish maqsadida, respublikamizda “Korrupsiyaga qarshi kurashish to’g’risida”gi Qonun qabul qilinib, maxsus vakolatli davlat organi, ya’ni, Agentlik tashkil etildi.



Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetida ham korrupsiyaga qarshi kurashish kompayens nazorat bo’limi faoliyat olib borayapti. Biz oliygoh ta’lim tizimida korrupsiyaning oldini olish va bartaraf etish maqsadida olib borilayotgan ishlar haqida batafsil ma’lumot olish uchun bo’lim boshlig’i Ahmadjon Safarov bilan suhbatlashdik. U quyidagilarni gapirib berdi.

– Korrupsiyaga qarshi kurashning muhim omillaridan biri aholining, ayniqsa, yoshlarning huquqiy ongi va

huquqiy madaniyatini yuksaltirishdir. Universitet korrupsiyaga qarshi kurashish bo’limi tomonidan kompayens nazorat tizimini yo’lga qo’yish bo’yicha O’zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar, Tog’-kon sanoati va geologiya vazirliklari namunaviy normativ-huquqiy hujjatlarini asosida, universitet ichki xususiyatlari inobatga olinib, 16 ta ichki lokal hujjatlar tayyorlanib, tasdiqlandi va bugungi kunda amaliyotga joriy qilingan. Bo’lim tomonidan universitetda korrupsiyaviy holatlarning oldini olish maqsadida, o’qish jarayonida, joriy, oraliq va yakuniy nazorat, magistrlik dissertatsiyasi, yakuniy davlat attestatsiyasi, bitiruv malakaviy ishi topshirayotgan talabalar (guruh sardorlari) hamda joriy, oraliq va yakuniy nazorat o’tkazuvchi professor-o’qituvchilar bilan profilaktik suhbatlar muntazam uyushtirilib kelinyapti. Oliyoghimizda joriy imtihonlar (sessiya) shunday tartib-tamoyil asosida o’tkazilmoqdaki, unga ko’ra muayyan fandan dars o’tgan professor-o’qituvchi imtihonda qatnashmaydi. 2023-yil mobaynida 67 ta profilaktik tadbir, 17 ta davra-suhbati, 8 ta o’quv seminar-trening va tanlovlar tashkil etildi.

O’qishga qabul qilish, o’qishni ko’chirish masalalarida ham korrupsiyaviy harakatlarga butunlay barham berilib, ochiqlik va shaffoflik ta’minlanmoqda, joriy imtihonlar korrupsiyadan xalos qilinmoqda. Abituriyentlarning hujjatlarini onlayn qabul qilishdan boshlab, barcha jarayonlar Davlat test markazi tomonidan amalga oshirilmoqda. O’qitish va baholashning kredit-modul tizimi joriy qilinib. Bu o’qitish va baholashda shaffoflikni ta’minlash, ta’magirlik va korrupsiyon omillarning oldini olishga xizmat qiladi. O’qitishning kredit-modul tizimida talabalariga o’zlarining qiziqishlari va qobiliyatlaridan kelib chiqib, tanlov fanlarini va professor-o’qituvchilarni tanlash imkoniyati beriladi. Oliy ta’lim tizimini boshqarishning raqamlashtirilgan tizimi “HEMS” dasturining tadbir qilinib natijasida fanlarni o’zlashtirish va baholash jarayonlarida professor-o’qituvchi va talabalar o’rtasidagi munosabatda inson omili aralashuviga yo’l qo’yilmayapti.

Universitet bitiruvchilari diplom olish jarayonida sarsongarlik, turli korrupsiyon holatlarga tushmasliklari uchun ularga “HEMS” axborot tizimi orqali diplomning elektron shaklini yuklab olish imkoniyati ham yaratildi. Profes-

sor-o’qituvchilarning obro’yi va maqomi oshirildi. Ularning moddiy daromadi va ijtimoiy himoyasi yaxshilandi, sog’lig’ini mustahkamlash, sanatoriya va kurortlarda davolanishini tashkil etish masalalariga jiddiy e’tibor berildi.

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti bugungi kunda “Korrupsiyasiz soha” loyihasida “korrupsiyadan xoli hudud” oliy ta’lim muassasasi ekanligiga shubha yo’q. Buni talabalar o’rtasida o’tkazilgan so’rovnomalalar va ularning ota-onalari bilan bo’lgan muvofiq va suhbatlar ham tasdiqlaydi. Korrupsiya holatlarining har qanday ko’rinishlariga nisbatan murosasiz munosabatda bo’lish va unga qarshi ayovsiz kurashish barcha darajadagi davlat organlari rahbar va xodimlarining ustuvor vazifasi etib belgilangan ekan, bu boradagi ichki kompayens nazorat tizimi faoliyati ham izchil, qat’iy amalga oshirilaveradi. Bundan maqsad esa jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishga qaratilgan davlat siyosatining samaradorligini oshirishga hissa qo’shishdir.

A.AXMEDOVA  
suhbatlashdi.

# TA’LIM KORRUPSIYADAN XOLI BO’LADI



■ Xabar

Janubiy kon boshqarmasida mehnat qilayotgan yoshlar tomonidan navbatdagi xayriya donorlik aksiyasi tashkil etildi.

## ZARKENTDA DONORLIK AKSIYASI: “EZGULIK ALBATTA QAYTADI!”

Janubiy kon boshqarmasi tomonidan “Ezgulik albatta qaytadi!” shiori ostida uyushtirilgan mazkur xayriya tadbiri boshqarmaning barcha korxonalarida o’tkazilib, tibbiy-ijtimoiy ko’makka muhtojlarni qo’llab-quvvatlash, ko’ngilli ravishda qon topshirishga chaqirish orqali bemorlarning hayotini saqlab qolish, jamiyatda insonparvarlik va mehr-oqibat g’oyalarni targ’ib qilishga qaratildi.

Bugungi xayriya aksiyasi orqali ezgu ishlariga oz bo’lsa-da hissamni qo’shganimdan mamnunman, – deydi 4-gidrometallurgiya zavodi muhandisi Otabek To’rayev. – Og’ir sinovdan o’tayotgan bemorlarga qo’ldan kelganча yordam ko’rsatish hammamiz uchun farz va qarzdor.

Xayriya tadbirida 40 nafarga yaqin konchilar ishtirok etdi.

– Safdoshlarimiz orasida beg’araz donorlik aksiyasida ishtirok etish istagini bildirganlar ko’p bo’ldi, – deydi Janubiy kon boshqarmasi yoshlar yetakchisi Temur Qalandarov. – Ishlab chiqarish jarayonining izchilligini ta’minlash sababli ularning Samarqand viloyati qon yo’yish markaziga borishining iloji bo’lmadi. Bu haqda markaz rahbarlariga murojaat qildik. Ular vaziyatni to’g’ri tushunib, qon yo’yish markazi mutaxassislarining o’zlarini Zarkent qo’rg’onidagi “Zarmitan” oilaviy poliklinikasida zarur shart-sharoitlarni yaratib berishdi.

Xayriya aksiyada beg’araz donorlik tomonidan 12 litrga yaqin topshirilgan qon preparatlarini respublikamizdagi onkologiya va gematologiya ilmiy-amaliy markazlarining hududiy bo’limlarida davolanayotgan bemorlarga xayriya sifatida berilishi ko’zda tutilgan.

Mansur HUSANOV.

■ Лето-2024

## СКОПО ЛЕТО, СКОПО В ЛАГЕРЬ!

Увлекательный отдых с пользой для здоровья в лучших традициях детям Навоийского ГМК обеспечен!

Лагерь – это место, куда мальчишки и девочки стремятся за той самой активной сменой деятельности, отличной от привычного и однообразного склада жизни. Радует, что в лагерях НГМК есть все условия – высокое качество питания и проживания, отличный творческий потенциал у команды заряженных вожатых, воспитателей и грамотных управленцев, чистые санузлы с душевыми, веселые спортивные мероприятия, безопасность и мн.др., что создает комфортабельный и незабываемый отдых детям на летних каникулах!

В новое интересное путешествие отправятся в начале июня 2024 года школьники в 6 загородных («Сармыш», «Болажон», «Келажак», «Пах-

лавон», «Согиана», «Зарафшон»), 3 городских («Юлдуз», «Табассум», «Булбулча»), 2 лагеря труда и отдыха для старшеклассников («Машъал», «Ёшлик»), а также 2 лагеря для детей из малообеспеченных семей: в Нуратинском районе «Нурли диёр» и ДОЛ «Саримай» в районе Тупроккаля Хорезмской области.

В 13 лагерях полноценно отдохнут более 12 тысяч детей работников АО «НГМК», ГУ «Фонд НГМК» и ГП «Навоиуран». В том числе 1000 благотворительных путевок выделят детям семей из «Темир дафтар», «Аёллар дафтари», обществ слепых, глухих и др.

Желаем лучшего лета, нашим прекрасным детям!

■ Inson va qonun

## QILMISH-QIDIRMISH

Biz har kuni baxt bilan to’qnashamiz uni payqamay o’tib ketamiz. Ruhiyatimizdagi noqisliklar, tafakkurimizdagi kemtiklar bu bebaho ne’matni anglashga imkon bermaydi. Aslida, ertalab uyqudan ko’zimizni ochganimiz hamono baxtning yuzi yuzimizga uriladi: bolalarimiz bag’rimizda, to’rt muchamiz sog’ holda yana bir tongni tinchlik-xotirjamlikda kutib olishdan ortiqroq huzur bormikin? Baxtni his etmog’i uchun insonga son-sanoqsiz bebaho ne’matlar hadya etilgan. Yaqinda protez qo’lning narxini ko’rib kapalagim uchdi, hech qanday savdo, narx-navoyu dalolsiz tuhfa etilgan qo’llarimizning borligi qanday yaxshi! Texnika naqadar zamonaviy bo’lmasin, Yaratganning qudrati oldida oziylik milliardlarga xarid qilingan protez qo’lni har besh yilda alishtirib turilishi zarurligida yaqqol ko’rinib turibdi.

Inson tabiati o’zi shunaqa: bizda go’yoki hammasi to’kis va muhayyo bo’lishi kerakdek, hayot bizni baxtli qilish uchun qarzdordek! Oramizda shunday insonlar borki, boshidagi baxt qushini anglamaydi, noshukurlik, oxirini o’ylamaslik evaziga boridan ham ayriladi, o’zining, otasining ism sharifi ustidan qora chiziq tortadi.

2024-yilning 13-yanvar kuni tuni soat 01:30 larda Navoiy viloyati IIB “NKMK” IIB Uchquduq maydoni va Shimoliy kon boshqarmasi Ido-raviy harbiylashtirilgan qo’riqlash otryadi xodimlari hamkorligida kon jihazlarini tamirlash sexida o’tkazilgan tadbir davomida chiqish postida ushbu sexning keng profilar tamirlash ustasi U.R.ning sumkasi tekshirilganida, u sumkasida korxonaga mulki, og’irligi 4 kilogramm bo’lgan qo’rg’oshin bo’laklarini hech qanday hujjatlarsiz olib chiqishga uringanligi ma’lum bo’ldi. Ashyoviy dalillar haqida xolislar ishtirokida dalolatnoma tuzildi.

Mazkur holat yuzasidan 2024-yilning 14-fevral kuni U.R. Ramazonovga nisbatan O’zbekiston Respublikasi MJKning 61-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan huquqbuzarlikni sodir etganligi uchun jinoyi ish qo’zg’atilib, sud hukmi o’qildi.

Shimoliy kon boshqarmasi korxonalarini “obi-hayot” bilan ta’minlaydigan Issiqlik, suv-gaz ta’minoti va oqova suvlar sexining bir nechta uchashtalari ma’muriy binodan uzoqda – sanoat maydonlarida yoki cho’l hududlarida joylashgan. Halol rizq topishga bo’yni yor bermagan kimsalar korxonaga tegishli har qanday buyum, jihaz, anjom, shakildan qat’iy nazar, nazorat ostida ekanligini unutib qo’yganga o’xshaydilar.

Joriy yilning 13 yanvar kuni fuqaro E.M. sheriklari Z.H., S.S.lar bilan Uchquduq tumani “Shalxar” OFY hududida Shimoliy kon boshqarmasi Issiqlik, suv-gaz ta’minoti va oqova suvlar sexining xaziradagi mulki bo’lgan, o’lchami 2 metr 35 santimetrli 1000 millimetr diametri, o’lchami 1 metr 90 santimetr bo’lgan 630 millimetr diametri, o’lchami 1 metr 62 santimetr bo’lgan 426 millimetr diametri, o’lchami 52 santimetr bo’lgan 219 millimetr diametri metall quvurlarni hech qanday hujjat rasmiylashtirmasdan, noqonuniy kesib oloyotgan vaqtida ushlandilar. Ular o’zaro til birlashtirib, 1 268 kilogramm metall quvurlarni talon-taroj qilib, kon boshqarmasiga 2 216 464 so’m zarar yetkazgan.

Qilmish-qidirmish, deganlaridek, mazkur holat yuzasidan ham huquqbuzarlik sodir etgan fuqarolarga sud adolatli hukm chiqardi. Zero, shahar bedarvoza emas, jinoyatni sodir etgan har bir shaxs qilmishi uchun qat’iy javobgarlik belgilanganini unutmasligi zarur.

Umidjon XAZRATOV,  
Navoiy viloyati IIB “NKMK”  
IIB TQX tezkor vakili, kapitan.

